


**O‘zbekiston Respublikasi**  
**Oliy ta’lim, fan va innovasiyalar vazirligi**

**60112400-Professional ta’lim (Xoreografiya)**  
**bakalavriat ta’lim yo‘nalishining malaka talablari**

**Toshkent-2023**



## **ISHLAB CHIQLIGAN:**

- O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi;

## **TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovasiyalar vazirligining 2023 yil « 7 » 08 dagi 344 -sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

## **JORIY ETILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovasiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me‘yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovasiyalar vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

T/r		
1.	<i>60112400–Professional ta'lim (Xoreografiya)</i> bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi.....	4
1.1.	Qo'llanish sohasi .....	4
1.1.1.	<i>60112400–Professional ta'lim (Xoreografiya)</i> ta'lim yo'nalishi malaka talabining qo'llanilishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	<i>60112400-Professional ta'lim (Xoreografiya)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....	4
1.2.1.	<i>60112400-Professional ta'lim (Xoreografiya)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining sohalari.....	4
1.2.2.	<i>60112400-Professional ta'lim (Xoreografiya)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob'yektlari.....	5
1.2.3.	<i>60112400-Professional ta'lim (Xoreografiya)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4.	<i>60112400-Professional ta'lim (Xoreografiya)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy vazifalari.....	5
2.	<i>60112400-Professional ta'lim (Xoreografiya)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.....	6
2.1.	Umumiy kompetensiyalar.....	6
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar.....	7
2.3.	Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.....	7
2.3.1.	Kvalifikasiya.....	7
2.3.2.	<i>60112400-Professional ta'lim (Xoreografiya)</i> ta'lim yo'nalishi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar .....	7
2.3.3.	<i>60112400-Professional ta'lim (Xoreografiya)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi .....	8
	Bibliografik ma'lumotlar.....	10
	Kelishuv varag'i.....	11

## **1. 60112400 - Professional ta'lim (Xoreografiya) bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi**

**60112400 - Professional ta'lim (Xoreografiya)** ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavriat tayyorlash kunduzgi va sirtqi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil.

### **1.1. Qo'llanish sohasi.**

#### **1.1.1. 60112400 - Professional ta'lim (Xoreografiya) ta'lim yo'nalishi malaka talabining qo'llanilishi.**

Malaka talabi **60112400 - Professional ta'limi (Xoreografiya)** ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

#### **1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:**

- mazkur ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasasining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

- ta'lim yo'nalishining o'quv rejasi va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim muassasasining talabalari;

- bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

- ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

- oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

- oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

- oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

## **1.2. 60112400 – Professional ta'lim (Xoreografiya) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.**

### **1.2.1. 60112400 - Professional ta'lim (Xoreografiya) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari.**

**60112400 - Professional ta'lim (Xoreografiya)** sohasidagi bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'lib, xoreografiya san'ati sohasining pedagogika yo'nalishida, viloyatlardagi ixtisoslashtirilgan boshlang'ich raqs san'ati maktab-internatlari, musiqa va san'at muassasalari va barkamol avlod markazlarining pedagogik xoreografiya san'ati sohasi yo'nalishiga oid fanlarni o'qitish, yosh avlodni klassik, milliy, xalq va zamonaviy raqslar shu jumladan, ritmik va plastik harakatlar orqali jismonan sog'lom

va barkamol qilib tarbiyalashda innovasion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash bilan bog‘liq pedagogik soha majmuasini qamrab oladi.

**1.2.2. 60112400 - Professional ta‘lim (Xoreografiya) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob‘yektlari:**

- davlat va nodavlat tashkilot va muassasalar, maktab va maktabgacha ta‘lim tashkilotlari, madaniyat va san‘at maktablari, barkamol avlod markazlari;

- viloyatlardagi ixtisoslashtirilgan boshlang‘ich raqs san‘ati maktab-internatlari;

- xoreografiya san‘atining professional ta‘lim sohasi (Respublika xoreografiyaga ixtisoslashtirilgan maktab internati);

- turli soha va tarmoqlaridagi maktab va maktabgacha ta‘lim muassasalari, ixtisoslashtirilgan boshlang‘ich raqs san‘ati maktab-internatlari ixtisoslashtirilgan san‘at va madaniyat maktablari, Respublika musiqa va san‘at kolleji

- A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston davlat Katta akademik teatri hamda musiqali drama teatrlari;

**1.2.3. 60112400 - Professional ta‘lim (Xoreografiya) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:**

- ijodiy;
- ijodiy - tashkiliy;
- ixtisoslashtirilgan san‘at va madaniyat maktablari va kollejlarda pedagogika;
- ijtimoiy va jamoa sohasidagi faoliyat;
- ishlab chiqarish.

**1.2.4. 60112400 - Professional ta‘lim (Xoreografiya) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari:**

60112400 - Professional ta‘lim (Xoreografiya) ) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatining sohalari, ob‘yektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo‘lishi lozim:

**Ijodiy va ijodiy - tashkiliy faoliyatida:**

- kasbiy faoliyatda xoreografiya san‘ati sohasidagi ta‘lim tizimining o‘rta ta‘lim muassasalari hamda A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston davlat Katta akademik teatri hamda musiqali drama teatrlarida ijodiy faoliyat bilan shug‘ullanish;

- kasbiy faoliyatda o‘tkazilayotgan tadqiqotlar asosida xoreografiya san‘atiga doir yangi metodlarni tavsiya etish;

- xoreografiyaning pedagogika sohasiga doir mavjud metodikalar asosida eksperimental tadqiqotlarni o‘tkazish va ularning natijalariga ishlov berish;

- ijodiy-tashkiliy faoliyatda bir va ko‘p aktli balet spektakllarini, konsert dasturlarini yaratish, ijodiy xoreografiya jamoalarini (to‘garaklar, studiyalar, balet teatrlari, raqs ansambllari, ashula va raqs ansambllari) tuzib, pedagogik faoliyatni olib borish;

- internet tarmog‘ida sohaga oid eng yangi yutuqlar haqidagi ma‘lumotlarni maqsadli qidirib topish hamda amalda qo‘llash.

**Ixtisoslashtirilgan san‘at va madaniyat maktablari va kollejlarda pedagogika:**

- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilish, o‘z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;
- ixtisoslashtirilgan san‘at va madaniyat maktablari tizimiga mos o‘quv muassasalarida tayyorgarlik yo‘nalishida nazarda tutilgan o‘quv fanlari bo‘yicha nazariy, amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazish;
- o‘quv fanlarini o‘qitish uslubiyotini egallash;
- zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar asosida nostandart o‘quv darslarini ishlab chiqish va o‘tkazish;
- zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib, nostandart nazariy va amaliy mashg‘ulotlarini ishlab chiqish va o‘tkazish;
- o‘qitilayotgan fanlar bo‘yicha darslarni o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan o‘quv - metodik hujjatlarni tuzish;

#### **Ijtimoiy va jamoa sohasidagi faoliyatida:**

- zamonaviy davr talablariga javob beradigan pedagogik faoliyat olib borish.
- ijodiy xoreografiya jamoalarida (to‘garaklar, studiyalar, bolalar ashula va raqs ansambllari) konsert dasturlarini yaratish, sahnalashtirish va mashg‘ulotlarni olib borish.

#### **Ishlab chiqarish faoliyatida:**

- fuqarolik jamiyatining dolzarb masalalarini bilishi, O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai-nazarga ega bo‘lish;
- dunyoqarash bilan bog‘liq falsafiy bilimlarga tizimli ega bo‘lishi, mustaqil tahlil qila olishi, kasbiy faoliyatida ularni hisobga ola bilishi;
- Vatan tarixini bilishi, ma‘naviy milliy va umuminsoniy qadriyatlar masalalari yuzasidan o‘z fikrini bayon qila olishi va ilmiy asoslay bilishi, milliy istiqloq g‘oyalariga asoslangan faol hayotiy nuqtai-nazarga ega bo‘lishi;
- Axborot yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo‘lishi, o‘z kasbiy faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi;
- madaniyat va san‘at maktablari va tashkilotlarida, ixtisoslashtirilgan san‘at va madaniyat maktablari va kollejlarida, barkamol avlod markazlarida, bolalar musiqa va san‘at maktablarida pedagogik faoliyat ko‘rsatish qobiliyatiga ega bo‘lishi lozim.

### **2. 60112400 - Professional ta‘lim (Xoreografiya) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar**

#### **2.1. Umumiy kompetensiyalar:**

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;
- mantiqiy fikrlashlarni rivojlantirish, to‘g‘ri xulosa chiqarish, matematik madaniyatni shakllantirish;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo‘yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo‘lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;
- axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qullay bilishi, axborotlarni yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo‘lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;

- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zarurati to'g'risida tasavvurga ega bo'lish.

## **2.2. Kasbiy kompetensiyalar:**

- ta'lim yo'nalishi ixtisoslik fanlarni o'rganish va chuqur egallash uchun zarur bo'lgan fundamental kasbiy bilimlarni, amaliy ko'nikma va pedagogik o'quvlarni shakllantirish;

- ta'lim yo'nalishlariga muvofiq pedagogik faoliyatida erishilgan asosiy yutuqlar, muammolar va ularning rivojlanish istiqbollari haqida tasavvur hosil qilish;

- xoreografiya sohasidagi nazariy va amaliy dasturlarni san'at va madaniyat sohasi amaliyotida qo'llash;

- bilim va mahoratdan kelib chiqqan holda ishlab chiqarish sifatini ta'minlash;

- zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalarini qo'llagan holda pedagogik faoliyatni olib borish;

- pedagogik faoliyatning standart vazifalarini axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda olib borish;

- xoreografiya san'ati sohasida pedagogik, intellektual, madaniy, ma'naviy, ijodiy, kasbiy o'z-o'zini rivojlantirish borasidagi *bilimlar, amaliy mahorat va ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.*

## **2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarning egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar:**

Talabalar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko'nikmalarni egallashi o'quv rejasiga mantiqiy ketma-ketligida kiritiladigan majburiy va tanlov fanlarini o'zlashtirish, malakaviy amaliyotlarni o'tish hamda boshqa o'quv mashg'ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko'nikmalarni ta'minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlar – ta'lim yo'nalishi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo'shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek talabalarning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Ta'lim yo'nalishlari bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi.

Malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

Pedagogik amaliyot- pedagogik mahoratni oshirishga qaratiladi.

### **2.3.1. Kvalifikasiya: xoreograf, xoreograf pedagog.**

**2.3.2. 60112400 - Professional ta'lim (Xoreografiya) ta'lim yo'nalishi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar:**

O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta'lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	5340	178
Tanlov fanlar	1200	40
Malakaviy amaliyot	480	16
Yakuniy davlat attestatsiyasi	180	6

**2.3.3. 60112400 - Professional ta'lim (Xoreografiya) bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi:**

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamani ng hajmi, soatlarda	Kredit miqdor i	Semestri
<b>1.00</b>		<b>Majburiy fanlar</b>	<b>5340</b>	<b>178</b>	
1.01	O'YT1104	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	1
1.02	D1204	Dinshunoslik	120	4	2
1.03	O'TSQ1106	O'zbek tilini sohada qo'llanilishi	180	6	1
1.04	F1304	Falsafa	120	4	3
1.05	XRT13408	Xorijiy til	240	8	3,4
1.06	XSATF1204	Xoreografiya san'atida axborot texnologiyalaridan foydalanish	120	4	2
1.07	MA1704	Ma'naviyatshunoslik	120	4	7
1.08	UPP13408	Umumiy pedagogika va psixologiya	240	8	3,4
1.09	MEN.MT1304	Musiqa elementar nazariyasi. Musiqa tarixi.	120	4	3
1.10	JO'XST11208	Jahon va o'zbek xoreografiya san'ati tarixi	240	8	1,2
1.11	TT1704	Teatr tarixi	120	4	7
1.12	JO'A16706	Jahon va o'zbek adabiyoti	180	6	6,7
1.13	KRO'U118034	Klassik raqsini o'qitish uslubiyoti	1020	34	1,2,3,4,5,6,7,8
1.14	XSRO'U118036	Xalq sahna raqsini o'qitish uslubiyoti	1020	34	1,2,3,4,5,6,7,8
1.15	O'RO'U118034	O'zbek raqsini o'qitish uslubiyoti	1020	34	1,2,3,4,5,6,7,8
1.16	KP15608	Kasbiy pedagogika	240	8	5,6
1.17	MCHO'(F)11204	Musiqa cholg'ularini o'rganish (fortepiano)	120	4	1,2
<b>2.00</b>		<b>Tanlov fanlar</b>	<b>1200</b>	<b>40</b>	<b>4,5,6,7,8</b>
		<b>Jami</b>	<b>6540</b>	<b>218</b>	
	MA	<b>Malakaviy amaliyot</b>	480	16	2,4,6,8
	YDA	<b>Yakuniy davlat attestatsiyasi</b>	180	6	8
		<b>Jami</b>	<b>660</b>		
		<b>HAMMASI</b>	<b>7200</b>	<b>240</b>	



## **Bibliografik ma'lumotlar**

UDK: 002:651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01


---


### **Tayanch so'zlar:**

Kasbiy faoliyat turi, kasbiy faoliyat sohasi, kasbiy faoliyat ob'yekti, ijodiy faoliyat turlari, kompetensiya, modul, profil, oliy ta'lim muassasasi, professional ta'lim, xoreografiya, professional xoreografiya ta'limi, san'at va madaniyat muassasalari, viloyatlardagi ixtisoslashtirilgan boshlang'ich raqs san'ati maktab-internatlari, A.Navoiy nomidagi O'zbekiston davlat Katta akademik teatri hamda musiqali drama teatrlari, barkamol avlod markazlari, ixtisoslashtirilgan san'at va madaniyat maktablari va kollejlari, o'quv fanlar bloki, asosiy o'quv reja va o'quv dasturlari, ta'lim jarayoni, mustaqil ta'lim, malakaviy amaliyot, ishlab chiqarish, ilmiy tadqiqot jarayoni, bitiruv malakaviy ishi, yakuniy davlat attestatsiyasi.

# Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari hamda kadrlar iste'molchilari

## ISHLAB CHIQLIGAN:

O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi  
 Rektori  **SH.Toxtasimov**  
 2023 yil " " "  
 M.O.



## KELISHILGAN:

**O'zbekiston Respublikasi  
 Oliy ta'lim, fan va innovasiyalar  
 vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni  
 rivojlantirish tadqiqotlari markazi**

**O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va turizm  
 vazirligi Ta'lim va ilm-fanni rivojlantirish  
 boshqarmasi**

Direktor  **Sh. Yakubov**  
 2023 yil " " "  
 M.O.



Boshqarma boshlig'i  **N. Kasimov**  
 2023 yil " " "  
 M.O.



**Nizomiy nomidagi Toshkent davlat  
 Pedagogika Universiteti**

Rektor  **A. Qirg'izboyev**  
 2023 yil " " "  
 M.O.



**O'zbekiston davlat konservatoriyasi**

Rektor  **K. Urinbayev**  
 2023 yil " " "  
 M.O.



**O'zbekiston davlat filarmoniyasi**

Bosh direktor  **A. Tajiboyev**  
 2023 yil " " "  
 M.O.



**Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston  
 davlat akademik Katta teatri**

Direktor  **R. Usmanov**  
 2023 yil " " "  
 M.O.



171

**O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi 60112400-Professional ta‘lim  
(Xoreografiya) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari va o‘quv rejasining ishlab  
chiquvchilar, turdosh oliy ta‘lim muassasalari va asosiy kadrlar iste‘molchilari  
o‘rtasida**

**KELISHUV DALOLATNOMASI**

Toshkent sh.

“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2023 yil

Biz quyida imzo chekuvchilar O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi rektori Sh.Toxtasimov, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat Pedagogika Universiteti rektori A.Qirg‘izboyev hamda O‘zbekiston davlat konservatoriyasi rektori K.Urinbayevlar birgalikda O‘zDXAda ishlab chiqilgan quyidagi bakalavriat ta‘lim yo‘nalishining malaka talablari va o‘quv rejasini mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

**60112400-Professional ta‘lim (Xoreografiya) ta‘lim yo‘nalishi**

Malaka talablari hamda o‘quv rejani ishlab chiqilishida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 5847-son farmoni, 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-2909-son, 2017 yil 27 iyuldagi “Oliy ma‘lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-son, 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-son Qarorlari va 2023 yil 15-iyundagi “2023/2024 o‘quv yili uchun davlat oliy ta‘lim muassasalariga o‘qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to‘g‘risida”gi F-31-son Farmoyishiga hamda oliy ta‘lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o‘quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste‘molchilari tomonidan qo‘yilgan talablar ham inobatga olingan.

Ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari o‘quv reja va fan dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o‘quv rejani o‘rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

**Nizomiy nomidagi Toshkent davlat  
Pedagogika Universiteti rektori**

**A.Qirg‘izboyev**

**O‘zbekiston davlat  
konservatoriyasi rektori**

**K.Urinbayev**

**O‘zbekiston davlat xoreografiya  
akademiyasi rektori**

**Sh.Toxtasimov**